



A NEW INTERPRETATION OF O'TKIR HOSHIMOV'S WORK:
ARTISTIC-PSYCHOLOGICAL AND SOCIAL ANALYSIS

O'TKIR HOSHIMOV IJODIGA YANGICHA TALQIN: BADIY-
PSIXOLOGIK VA IJTIMOYIY TAHLIL

Obidova Marjona Abror qizi

*Guliston Davlat Universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 45-25-guruh talabasi*

Annotatsiya. *Ushbu maqola o'zbek adabiyoti namoyondasi O'tkir Hoshimov ijodi bo'yicha yangicha qarashlarni tahlil qilib, yozuvchi asarlaridagi dolzarb va global mavzularni qamrab olgan.*

Unda jamiyatimizdagi ba'zi ko'rinib - ko'rinmaydigan kamchiliklar aks ettirilgan. Mazkur maqolada O'tkir Hoshimov ijodi badiiy-psixologik hamda ijtimoiy-estetik yondashuv asosida tahlil qilinadi. Adib asarlarida inson ruhiyati, jamiyat muammolari, urushning fojeaviy oqibatlar hamda oilaviy qadriyatlar masalasi yangicha talqin etiladi. Tadqiqot davomida yozuvchining badiiy mahorati, obraz yaratish uslubi va hayot haqiqatini ifodalashdagi o'ziga xosligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: *yo'zuvchi, hikoya, realizm, psixologizm, san'at, roman poetikasi, ijtimoiy muammo, badiiy tafakkur*

Annotation. *This article analyzes new views on the work of the Uzbek literary figure Otkir Hoshimov, covering current and global topics in the writer's works. It reflects some of the visible and invisible shortcomings in our society. This article analyzes the work of Otkir Hoshimov based on an artistic-psychological and socio-aesthetic approach. The writer's works give a new interpretation of the human psyche, social problems, the tragic consequences of war, and family values. The research reveals the writer's artistic skills, style of image creation, and originality in expressing the truth of life.*

Keywords: *writer, story, art, poetics of the novel, psychologism, realism, social of problem, artistic thought*

Аннотация. *В данной статье анализируются новые взгляды на творчество узбекского литератора Откира Гошимова, затрагивающие актуальные и глобальные темы в произведениях писателя. В ней отражены некоторые видимые и невидимые недостатки нашего общества. Анализ творчества Откира Гошимова проводится с художественно-психологической и социально-эстетической точек зрения. Произведения писателя предлагают новую интерпретацию человеческой психики, социальных проблем, трагических последствий войны и семейных ценностей. Исследование раскрывает художественное мастерство писателя, стиль создания образов и оригинальность в выражении правды жизни.*





Ключевые слова: *писатель, рассказ, искусство, поэтика романа, психологизм, реализм, социальная проблема, художественная мысль.*

Kirish. O‘tkir Hoshimov nafaqat mohir hikoyanavis ,qissanavis , romannavis va publitsist sifatida balki sahna san‘atining nozik qonuniyatlarini teran his etgan zabardast dramaturg sifatida ham zamonaviy o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan siymodir . Uning ijodiy tafakkuri serqirra, badiiy nigohi o‘tkir, tasvir uslubi esa ruhiyat qariga sho‘ng‘iydigan darajada terandir . Hoshimov asarlarida inson qalbining eng nozik torlari jaranglab, hayot haqiqatlari samimiy va ta‘sirchan ifodalanadi. U so‘z san‘atini nafasat va zakovat bilan uyg‘unlashtirib, milliy adabiyotimizni yangi badiiy ufqlarga olib chiqqan ijodkordir .Uning asarlarida hayot haqiqatlari, jamiyatdagi ziddiyatlar hamda insoniy fazilat va nuqsonlar realizm ruhida tasvirlangan.

Mazkur maqolaning maqsadi - yozuvchi ijodining yangicha ilmiy yondashuv asosida tahlil qilish va bugungi adabiy jarayondagi ahamiyatini asoslashdan iborat.

Tadqiqot jarayonida quyidagi netodlardan foydalaniladi:

Badiiy matnni kopleks tahlil qilish metodi

Qiyosiy-tipologik yondashuv



Psixologik tahlil usuli

Ijtimoiy-estetik tahlil

Mazkur metodlar yozuvchi asarlaridagi g‘o‘ya va obrazlar tizimini chuqurroq anglash imkonini beradi .

O‘tkir Hoshimov 1941-yil 5-avgustda Toshkentda tug‘ilgan. Uning bolaligi Ikkinchi jahon urushi yillariga to‘g‘ri keldi. Otasining erta vafoti, urush davrining og‘ir muhitlari uning ruhiyatida chuqur iz qoldirdi. Aynan shu hayotiy tajriba keyinchalik uning asarlarida samimiy va realistik tasvirlarga asos bo‘ldi.

Yozuvchining,, Daftar hoshiyasidagi bitiklar’’ asarida Vatanimiz boshiga tushgan og‘ir kulfat ,, o‘zbek ishi ’’ ,,paxta ishi ’’ degan qatag‘on yillari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar go‘zal lavhalarda tasvirlangan. Asar muallifning sinchkov kuzatuvchan o‘y-kechinmalari, armonlari , iztiroblari, istehzoli va tabassumli xulosalari asosida dunyo yuzini ko‘rgan. Yaralganimizdan to bugungi kunimizgacha bizga nimalar ayon - nimalar noayon , nimalarni topdik- nimalarni yo‘qotdik , kimlarga mehr berdik - kimlarni esa tahqirladik , o‘zimizga havola. Ko‘nglimizdan kechadigan ana shu haqiqatlarni yodga soladigan mazkur kitob xuddi shu jihatlari bilan qalbimizga yaqin. Hammaga manzur bo‘lgan bu kitobni O‘tkir Hoshimov umr yo‘ldoshi , maslakdoshi , farzandlarining onasi - O‘lmasxonga bag‘ishlaydi. Asarda yozuvchi ,, shu qadar shirinki, totib ko‘rging keladi. Shu qadar achchiqki, tilingni kuydiradi!’’ degan fikrlarni bugungi kunda dolzarb mavzu bo‘lgan ,,haqiqatga ga qarata yozadi. O‘tkir Hoshimov jamiyatimizdagi yana bir illatlardan birini ham ajoyib iboralar orqali ochib beradi. Bu umrbod ortingdan ergashib





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

yuradigan yoqimli dushman - nafsdir. Muallif publitsistik ruh bilan inson sha'ni va haqiqat masalasini ko'taradi.

„Cho'l havosi ” O'tkir Hoshimovning ilk qissasi bo'lib , unda oshiq yigitning ko'ngil kechinmalari yoritilgan . „Xatlar yurak kaptari ,

Xatdir yurak daftari ” deya yozuvchi fikrlarini xatlar orqali ifodalaydi .

„Birinchi muhabbat tip-tiniq bahor osmonidagi bulutga o'xshaydi . Pokiza va shaffof.. Birinchi asar esa, birinchi muhabbatga o'xshaydi . Birinchi muhabbat odamning esidan chiqmagani kabi , birinchi asar ham xotiraga muhrlanib qoladi . Shaffof , pokizaligi bilan Bundan qariyb yarim asr avval yozilgan „ birinchi muhabbatim ” ni kitobxonlarga taqdim etishga jur'at qildim” ,-- deydi O'tkir Hoshimov.

Eng ko'p kitobxonga ega bo'lgan , har bir davrda o'zining ma'naviy , falsafiy, ibratomuz saviyasini saqlab qolgan , o'quvchilar qalbida otashin hislarni paydo qilgan , kelajak hayot uchun turtki bergan asar bu o'sha „ Ikki eshik orasi” romanidir . Unda Robiyaning Kimsanga bo'lgan sadoqati va chin sevgisi bir tomon bo'lsa , Ra'noning turmush o'rtog'iga xiyonati bir tomondir . Shu orqali ham hayotda doimo yaxshilik bor joyda yomonlik ham bo'lishini anglashimiz mumkin . Axir besh qo'l barobar emas. O'tkir Hoshimov o'z romani vositasida dilidagi so'zlarini aytib o'tgan: „Rost bilan yolg'onning o'rtasi — to'rt enlik“, degan gap bor. Qiziq, nega endi oz emas, ko'p emas, to'rt enlik? Gap shundaki, ko'z bilan quloqning orasi — to'rt enlik ekan. Eshitganingga emas, ko'rganingga ishon ... Maqsad — shu. Bu kitobdagi ko'p odamlarni o'zim ko'rganman. Ko'plari bilan gaplashganman. Ba'zilarining o'zi bilan, ba'zilarining ... ruhi bilan ... Ba'zilarini nimani gapirgan bo'lsa, shuni qog'ozga tushirdim. Ba'zilarini nima gapirganini emas, nima o'ylaganini yozishga majbur bo'ldim.(Nachora, hamma rost gapiravermaydi. Ammo yolg'on gapirayotgan odam ham ichida, baribir rostini o'ylaydi.) Xullas, bu savdolar ko'p yillar davomida ko'p kishilarning boshidan kechgan. Ular ustidan hukm chiqarish — sizlarga havola ... Tilimning uchida turgan yana bir andishani aytmasam bo'lmaydi. Ehtimol, siz bu kitobda foje ko'payibroq ketmadimikin, degan xayolga borarsiz. Nachora, avvalo hayot — nuqul bayramdan iborat emas. Urush esa o'yin emas. Ikkinchi jahon urushi ellik million odamning uvoliga qoldi. Shundan yigirma millioni bizning odamlar edi. Eng aziz, eng asl kishilarimiz. Qolaversa, urush faqat okopdagi jangchilarning joniga chang solib qolmadi. Minglab chaqirim naridagi odamlarni ham sinovdan o'tkazdi. Mushkul damlarda iymonini, insonligini saqlab qolgan ota-onalarimiz, aka-opalarimizning hayoti bugungi zamonda bizga o'rnak bo'lsa ne ajab!Asarda urush va uning inson taqdiriga ta'siri chuqur psixologik tasvir orqali ochiladi. Roman kompozitsiyasi hayotning murakkab va ziddiyatli ekanligini ko'rsatadi. “Rost bilan yolg'onning o'rtasi — to'rt enlik” degan fikr orqali muallif haqiqatni anglash muammosini ilgari suradi.

Qalami o'tkir hikoyanavisning „ Tomchi haqida ertak” nomli hikoyasidan biz do'stlik va yordam hayotda qanchalik muhim ahamiyatga ega ekanligini bilib olamiz .O'rik va Tomchi o'rtasidagi munosabatlar bizga do'stlarning bir- biriga qanday yordam va





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'mak berishi zarurligini ko'rsatadi . O'rik Tomchi yordamida o'zgacha quvvat va hayotga to'la bo'ladi , ayniqsa Tomchi qiyin sharoitlarda do'stining yonida bo'ladi . "Dehqonning bir kuni" hikoyasida esa yosh oilaning, dehqon oilasining bir kunidan lavhalar o'raqali XX asr insonlari, ularning hayoti yoritib berilgan. Yoki hikouanavisning "Yalpizomsa" nomli bejirimgina hikoyasi orqali qishloq va shahar o'rtasidagi tafovutni yana bir karra qalban anglaysiz. Bunda yoshgina qahramon Feruzaning qishloq ob-havosiga talpingani va uning yalpiz o'simligini qishloqqa borib taniganidan hayratlanasiz. "Baxt" asaridan esa hayotta aslida baxt oddiy narsalarda ekanligini his qilamiz. Muniraning jaji qizi Nilufar u uchun haqiqiy baxt nima ekanligini anglatadi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub " Sirli yulduz" asari hayotiyli va insoniy tuyg'ularni chuqur tasvirlashi bilan ajralib turadi. Asar o'zbek xalqining ijtimoiy qarashlarini o'zida aks ettirgan. U adibning uslubiga xos bo'lgan samimiylik va ta'sirchanlik bilan yozilgan. "Umr savdosi" hikoyasi qahramoni Xurshida orqali o'ylab ish qilish kerak ekanligini va hammaga ham ishonib bo'lmasligini bilib olamiz. Xurshida o'zboshimchalik qilib onasining xohishlariga qarshi chiqib, o'ylamay-netmay Anvarga turmushga chiqadi. Yoshgina qiz 3-xotinga aylanib qolib, umri xazon bo'ladi. Jamiyatimizdagi dolzarb mavzuardan biri bo'lgan oila muqaddas ekanligi, otananing farzandiga hamisha baxt tilashi ochib berilgan.

Qahramon Xurshida taqdiri orqali adib yoshlarning o'ylamay qabul qilgan qarorlarining fojeviy oqibatlarini ko'rsatadi.

Bu jihatlar yozuvchi ijodida realizm va psixologizm uyg'unligini tasdiqlaydi.

„Domlaning aytganini qil ” hikoyasi orqali esa bizning og'riqli nuqtalarimizdan bo'lgan bugungi davrda ustozlarning qadri masalasi yoritib berilgan . Bu ajoyib mavzuni og'riqli nuqta deyishimdan sabab hozirda bilimli va aqlli o'quvchilar judayam ko'p , ammo ularning ba'zi birlari ustozlarining qadrini bilmaydi va yutuqlariga ham o'z bilimim sababli erishdim deb o'ylaydi , biroq ustoz shunday mo'tabar zotki , o'quvchisini ham o'z bolasiday ko'rib bergan nonini ya'ni bilimini , qilgan mehnatini minnat qilmaydi . Hikoyada yumor orqali ma'no yetkazib berilgan . O'tkir Hoshimovning bu hajviyasida hammaga nasihat qilib , o'zi hali bu hikoyalarining foydasini ko'rmagan kishi hikoya qilinadi . To'g'ri Ochil Oqilovich juda yaxshi domla sifatida ko'rsatilmagan bo'lsa-da, bu havj . Ustoz baribir muqaddas zot . Xalqimizda ustoz otangday ulug' degan maqol bor .Yozuvchi bu hikoya orqali relizmni ifodalagan.

Hayot davomida shunay vaqtlar bo'ladi , gohida ularni hech qachon unutinging kelmaydi , gohida esa tushingda kechirgandek unutishni xohlaysan . Biroq bunday pallalar hayotingda qanday iz qoldirganidan qat'iy nazar , baribir qalbingning bir bo'lagi hamisha o'sha xotiralar , kechinmalar bilan band bo'lib qolaveradi ... Noyob iste'dod sohibi bo'lgan O'tkir Hoshimovning „ Tushda kechgan umrlar ” asarini mutolaa qilgan kitobxon qalbidan ham shunday o'ylar kechadi . Romanda judayam keng qamrovli voqealar keltirib o'tilgan deya bemalol ayta olamiz : 30-yillarning mash'um „qatag'on”





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

qilish manzaralari , 80-yillarda ko'pchilikning yostig'ini quritgan Afg'oniston urushlari , „ o'zbek ishi ” , „paxta ishi ” , „ qo'shib yozish ” kabi voqealar . Adibning bu bo'lib o'tgan hodisalarni batafsil, bir biriga bog'lab asarda namoyon qila olganiga tan bermaslikning iloji yo'q. Shahnoza va Rustamning musaffo sevgisi , Qurbonoyning oilasidan ajrashgani , Fotimaning nomusga chidolmay o'z joniga qasd qilishi , komissarning kasbiy faoliyati davomida qanchadan qancha insonlarni umriga zomin bo'lishi , komissarning o'g'illarini o'ziga o'xshamagani va otasiga qarshi chiqish holatlari , Rustamning otasi „qo'shib yozish ” sababli tuhmat qilinib qamoqqa tushishi kabi bir qancha keskin , hayajonli , dolzarb mavzular o'rtaga chiqadi . Roman 1993-yilda yozib tugatilgan bo'lsa-da , bir tomondan undagi urush davrlarining ochib berilishi bizni o'ziga jalb qilsa, yana bir jihatdan asarda yozuvchi bugungi jamiyatdagi ayrim mavzularni ham aytib o'tgan desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz . Inson ushbu asarni o'qib mustaqillik aziz ne'mat ekanligini yanada tafakkur qiladi . Roman inson hayotini xuddi „ tush ” kabi bir lahzada o'tib ketishini ham ifodalagan . Asar ijtimoiy psixologizmning yorqin namunasi.

Mohir hikoyanavisning „ Muhabbat ” hikoyasida Tirkashning bir qiz uchun uni katta qilgan, boqib olgan insonini tashlab ketishi, ammo vaqtida aqli kirib uyiga qaytishi voqealari bizga ko'p mazmunni anglatadi . Shu voqea zamirida ancha purma'no so'zlar yotibdi . Bejizga qalami o'tkir yozuvchi bu hikoyaga „ Muhabbat ” deb nom bermagan, axir . Tirkash muhabbati uchun qanchalar kurashsa , Dilor bunga shunchalar yengil qaraydi , biroq muhabbat g'alaba qozonib Dilor ham Tirkashni sevishini tushunib yetadi va u bilan qishloqqa qaytadi . Mazkur voqealar orqali yozuvchi inson qalbidagi muhabbat va sadoqat tuyg'ularining murakkab psixologik jarayonini badiiy talqin etadi. Tirkash obrazida muhabbat yo'lida xatoga yo'l qo'ygan, biroq ma'naviy uyg'onish orqali to'g'ri xulosaga kelgan shaxs xarakteri gavdalanir. Asarda ota-ona mehrining muqaddasligi hamda insonning o'z ildizlariga qaytishi g'oyasi yetakchi ma'naviy-axloqiy konsepsiya sifatida namoyon bo'ladi. Hikoya syujeti muhabbatni shunchaki hissiy kechinma emas, balki mas'uliyat, sadoqat va ma'naviy kamolot mezoni sifatida talqin etilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

O'tkir Hoshimovning „ Ikki karra ikki-- besh ” qissasi , bosh qahramon Qo'shoqvoy taqdiri orqali jamiyatdagi illatlar , oddiy mehnatkashlar hayoti va adolatsizlikni o'tkir satira orqali ochib beradi . Asarda insoniy munosabatlar , do'stlik, g'arazli maqsadlar va davrning qiyin ahvoli xolisona tasvirlangan bo'lib , nafaqat o'quvchini kuldirib qo'ymay balki chuqur tafakkur qilishga chorlaydi . Unda ilgari surilgan bosh g'oya hayotdagi adolatsizlik , soxtalik va insoniylikni saqlab qolish masalalarini hajv orqali ko'rsatish bo'lgan desak adashmagan bo'lamiz . Kitob oddiy odamlar hayoti orqali ijtimoiy muammolarni ochib bergani uchun hamon kitobxonlar qo'lidan tushmayapti , qalbida o'chmasi iz qoldiryapti va o'z ahamiyatini yo'qotmayapti. Qissa markazidagi Qo'shoqvoy obrazi orqali muallif jamiyatdagi byurokratik to'siqlar va ma'naviy inqiroz sabab oddiy insonning qadrsizlanib borish jarayonini badiiy umumlashtirish darajasiga





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ko'taradi. Asarda adolatsizlikning ildizi shaxsiy manfaatni jamiyat manfaatidan ustun qo'yish holati bilan izohlanadi, natijada ijtimoiy tengsizlik va ishonchsizlik muhiti yuzaga keladi. Satira vositasida kulgili tuyulgan voqealar aslida chuqur fojiviy mohiyat kasb etib, tizimli muammolarning inson taqdiriga salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Sabab va natija munosabatlari qissa syujetida izchil ochilib, yolg'on va soxtalikning vaqtinchalik ustunligi oxir-oqibat ma'naviy tanazzulga olib kelishi ta'kidlanadi. Muallifning badiiy konsepsiyasiga ko'ra, insoniylikni saqlab qolishning asosiy omili — halollik, o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyat hissining mustahkamligidir. Qissada ko'tarilgan muammolarning yechimi sifatida jamiyatda adolatli boshqaruv tamoyillarini kuchaytirish, mehnatkash qatlam manfaatlarini himoya qilish hamda ma'naviy tarbiya masalasiga jiddiy e'tibor qaratish zarurligi ilgari suriladi. Shu bois, asar nafaqat badiiy-estetik ahamiyatga, balki ijtimoiy-tarbiyaviy qiymatga ham ega bo'lib, bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab kelmoqda.

„Nur borki soya bor ” O'tkir Hoshimov tomonidan yozilgan juda mashhur romanlardan biri hisoblanadi . Asar Sherzod ismli jurnalist hayoti bilan birgalikda inson taqdiri , hayot v mamot orasidagi his- tuyg'ularni ko'rsatib beradi . Bundan tashqari Sayfi Soqiyevich kabi hamma narsani pul bilan o'lchaydigan , mansab va manfaat hal qiladigan, hayotda yashaydigan , qo'shtirnoq ichida jamiyatdagi sarqitlarni paydo qiladigan va ularni ichida yashaydigan kimsalar borligini ochib beradi . Roman inson qalbi jumborlari tadqiqiga qaratilgan bo'lib , jurnalistning hayotiy tajribalari va jamiyatdagi muammolarni yaqqol namoyon qiladi . Bu romanda hayotda yaxshilik va yomonlik , nur va soya birga yashashi , inson esa to'g'ri yo'lni tanlashi kerakligi haqidagi g'oyalar ilgari surilgan . Roman kompozitsion jihatdan qarama-qarshiliklar tizimiga qurilgan bo'lib, “nur” va “soya” tushunchalari orqali axloqiy dualizm badiiy-falsafiy mezon sifatida talqin etiladi. Sherzod obrazi orqali muallif ziyoli qatlam vakilining ichki iztiroblari, kasbiy mas'uliyati hamda haqiqatni izlash jarayonidagi ruhiy kurashlarini psixologik realizm asosida yoritadi. Sayfi Soqiyevich timsolida esa ma'naviy qadriyatlarning moddiy manfaatlariga almashinuvi sabab yuzaga kelgan ijtimoiy inqiroz sabablari ochib beriladi. Asarda sabab va natija munosabatlari aniq ko'rinadi: manfaatparastlik va loqaydlik kuchaygan muhitda insoniy munosabatlar zaiflashadi, natijada jamiyatda ma'naviy bo'shliq paydo bo'ladi. Yozuvchi badiiy tasvir vositalari orqali shaxsning ichki tanlovi uning taqdirini belgilashini asoslaydi, ya'ni nur tomon intilgan inson ma'naviy yuksalishga erishadi, aks holda “soya” girdobiga tushadi. Roman g'oyaviy-estetik jihatdan inson qalbi tahliliga qaratilgan bo'lib, unda hayot va mamot masalasi nafaqat biologik, balki ma'naviy kategoriyalar doirasida ham talqin qilinadi. Shu bois, asar bugungi kunda ham dolzarb bo'lib, jamiyat taraqqiyoti uchun axloqiy poklik, ijtimoiy adolat va shaxsiy mas'uliyat tamoyillarini mustahkamlash zarurligini nazariy va badiiy jihatdan asoslab beradi.

„Bahor qaytmaydi ” qissasi 1970-yilda yozilgan va yozuvchiga katta shuhrat keltirgan asarlardan biri, „Bahor qaytmaydi ” qissasi 1970-yilda yozilgan va yozuvchiga katta






MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

shuhrat keltirgan asarlardan biridir . Asar bizga insoniy fazilatlar , muhabbat, hayot sinovlari va ma'naviy poklik haqida ma'lumotlarni taqdim qilish bilan birgalikda kitobxonni o'ziga jalb qiladi . Bu kitob asosida 1972- yilda shu nomli film suratga olinadi. Filmدا Lutfulla Sagdullayev kitobning bosh qahramoni Alimardon To'rayev rolini ijro etdi . Gulchehra Sagdullayeva Muqaddam rolini , Rustam Afzalov esa Anvar rolini mahorat bilan ijro etadi . Film ham asar singari san'atga ko'plab tomoshabinlar olib kird.i Qissa kompozitsion tuzilishi jihatidan psixologik realizm an'analari asosida qurilgan bo'lib, unda qahramon ruhiy evolyutsiyasi izchil ravishda ochib beriladi.Alimardon To'rayev obrazi orqali yozuvchi shaxsning hayotiy xatolar sabab ichki iztiroblarga duch kelishi va o'zligini anglash jarayonini badiiy umumlashtirish darajasiga ko'taradi.Asarda sabab va natija munosabati aniq ko'zga tashlanadi: beparvolik va hissiyotlarga berilish ma'naviy yo'qotishlarga olib keladi, ongli tanlov esa insonni kamolot sari yetaklaydi.Muhabbat masalasi qissada romantik tuyg'u sifatida emas, balki insonni tarbiyalovchi va ruhiy poklovchi kuch sifatida talqin etiladi.Film talqini orqali asarning g'oyaviy-estetik mazmuni keng ommaga yetkazilib, adabiyot va kino san'ati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik namoyon bo'ladi . "Bahor" timsoli badiiy ramz sifatida yoshlik, imkoniyat va hayotning takrorlanmas davrini anglatib, vaqtning qaytmasligi haqidagi falsafiy g'oyani chuqurlashtiradi. Shu bois, qissa bugungi kunda ham tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan bo'lib, yosh avlodni mas'uliyatli qaror qabul qilishga hamda hayot qadriyatlarini teran anglashga undaydi.

O'zbekiston xalq yozuvchisi O'tkir Hoshimov qalamiga mansub „ Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida urushning dahshatli oqibatlari , inson taqdirleri va urushdan keyingi davr ruhiyati , kam sonli „urush" so'zi qo'llanilishiga qaramay , juda ta'sirli va realistik tasvirlangan . Qahramonlari Umri xola va o'g'illari Shonemat , Shoikrom hayoti tasvirida yozuvchi, adib insoniyatga purma'no hikmatlarni uqtirmoqchi . Bu hikoyadagi voqealar urush bo'layotgan hududdan ancha uzoq masofada ro'y berayotgan bo'lsa-da , urushning ta'siri qahramonlar hayotiga sezilarli darajada bilinadi.Muallif bevosita jang maydonini emas, balki urushning inson ruhiyatida qoldirgan jarohatlarini tasvirlash orqali badiiy ta'sir kuchini yanada oshiradi. Shu jihatdan asarda "urush" tushunchasi ko'proq ramziy-ma'naviy mazmun kasb etadi. Ya'ni urush nafaqat qurolli to'qnashuv, balki inson qalbida yuz beradigan ichki ziddiyatlar, yo'qotishlar va ruhiy iztiroblar timsoli sifatida talqin qilinadi.Asar poetikasida psixologik realizm yetakchi o'rin tutadi. Qahramonlarning ichki monologlari, sukutlari va oddiy kundalik holatlari orqali muallif travmatik xotira fenomenini ochib beradi. Urushdan keyingi davr tasvirida ijtimoiy muhitning sovuqlashuvi, insonlar o'rtasidagi begonalashuv va ma'naviy bo'shliq holati sabab sifatida ko'rsatiladi, natijada shaxs ruhiy izolyatsiyaga duch keladi. Bu jarayon esa avlodlar o'rtasidagi tushunmovchilik va qadriyatlar inqiroziga olib keladi.Badiiy matnda lakonik uslub qo'llanilishi, ya'ni urush haqidagi ochiq tasvirlarning kamligi, aksincha, bilvosita ishoralar orqali voqelikni ochish usuli asarning estetik qiymatini oshiradi. Muallif voqealarni drammatizatsiya qilmaydi, balki real hayot manzaralarini tabiiy





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ravishda ko'rsatadi. Natijada o'quvchi matnni nafaqat o'qiydi, balki uni ichki hissiy tajriba sifatida his qiladi. Ilmiy tahlil nuqtai nazaridan qaralganda, asar urushdan keyingi jamiyatning psixologik portretini yaratadi. Unda insonning sabr-toqati, chidamliligi va umid tuyg'usi asosiy g'oyaviy qatlarni tashkil etadi. Shunday qilib, asar urushni tarixiy hodisa sifatida emas, balki insoniyat xotirasida qolgan ruhiy jarayon sifatida tadqiq etadi va shu orqali o'zining chuqur falsafiy hamda tarbiyaviy ahamiyatini namoyon etadi.

Mazkur maqolaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'tkir Hoshimov ijodi badiiy-psixologik va ijtimoiy-estetik yondashuv asosida kompleks tarzda tahlil qiliadi, roman va hikoyalardagi obrazlar tizimi yangi talqinda izohlanadi, yozuvchi ijodining zamonaviy adabiy jarayondagi ahamiyati asoslanadi.

O'tkir Hoshimov ijodi o'zbek adabiyotida psixologik realizm va ijtimoiy-estetik tafakkurning muhim bosqichini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, adib asarlarida inson shaxsining ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va axloqiy tanlov masalasi markaziy o'rin egallaydi. Yozuvchi voqelikni badiiy umumlashtirish orqali jamiyat hayotidagi muammolarni individual taqdirlar misolida ochib beradi. Bu esa uning ijodini nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega hodisa sifatida baholash imkonini yaratadi. Roman va hikoyalarda obrazlar tizimi izchil kompozitsion qurilish asosida shakllantirilgan bo'lib, qahramonlar xarakteri ichki monolog, dialog va psixologik detal vositasida ochiladi. Ayniqsa, urush mavzusi, oilaviy munosabatlar, sadoqat va vijdon masalalarining talqini yozuvchining estetik konsepsiyasini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Asarlarda hayot hodisalari idealizatsiyasiz, realistik tasvir orqali berilishi muallifning haqiqat tamoyiliga sodiqligini ko'rsatadi. O'tkir Hoshimov ijodi o'zbek adabiyotida psixologik realizm va ijtimoiy-estetik tafakkurning muhim bosqichini tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanganki, adib asarlarida inson shaxsining ichki dunyosi, ruhiy ziddiyatlari va axloqiy tanlov masalasi markaziy o'rin egallaydi. Yozuvchi voqelikni badiiy umumlashtirish orqali jamiyat hayotidagi muammolarni individual taqdirlar misolida ochib beradi. Bu esa uning ijodini nafaqat badiiy, balki ijtimoiy-falsafiy ahamiyatga ega hodisa sifatida baholash imkonini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. - Toshkent: Sharq nashriyoti, 1986.
2. O'tkir Hoshimov. Daftar hoshiyasidagi bitiklar. — Toshkent: Sharq, 2001.
3. O'tkir Hoshimov. Dunyoning ishlari. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1982.
4. O'tkir Hoshimov. Bahor qaytmaydi. — Toshkent: Yosh gvardiya, 1970.
5. Naim Karimov. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 2005.
6. Baxtiyor Qosimov. Adabiyot nazariyasi. — Toshkent: Fan, 2008.
7. Ozod Sharafiddinov. Adabiy tanqid va zamon. — Toshkent: Ma'naviyat, 1999.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

8. Ibrohim G'afurov. So'z va ma'no. — Toshkent: Ma'naviyat, 2005.
9. To'ra Mirzaev. O'zbek adabiyoti tarixi. — Toshkent: Fan, 2006.
10. Umarali Normatov. Istiqlol davri adabiyoti. — Toshkent: Akademnashr, 2010.

